

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

1
2024



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 738 sahifa, 7-fevral, 2024-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati.....	10
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Yashil iqtisodiyotga o'tishda konseptual, ilmiy, innovatsion yondashuvning zarurati	16
Gulnora Abdurahmonova	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish muammolari va uni bartaraf etish yo'llari	22
S. R. Topildiyev	
Milliy strategik maqsadlar: ekologik va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi	28
Muratova Shohista Nimatullayevna	
Green Economy in Tourism in Uzbekistan.....	32
Alieva Makhbuba Toychievna	
Инновационные подходы в сельском туризме: "Зеленые маршруты"	36
Гольшева Елена Вячеславовна	
Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari	42
Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
To'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari.....	47
A.Yu. Mardanov	
Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirishning istiqbollari.....	52
A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi asosida barqaror rivojlanishga erishish	57
Abdullayev Elyorbek Odiljon o'g'li	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'рни	62
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Turistik hududlarning barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida integral baholash ko'rsatkichlarini aniqlashning nazariy jihatlari.....	66
Asraqulov Abduraxmon Sultonovich	
Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyot va uning ayrim masalalari.....	70
Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna, Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.....	74
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati.....	78
Butanova Dilnoza Rustamovna	
Global krizislar va ularning turizm iqtisodiyotiga ta'siri.....	83
Hallakova Barnoxon bahodirjonovna	
Agroturizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo'llanilishi.....	95
Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li	
Yashil iqtisodiyotni kreditlashda banklarning o'рни.....	101
Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi	
Qurilish materiallari sanoati korxonalarini samaradorligini baholash masalalari.....	104
Isayev Jakhongir Muzaffarovich	
Iqtisodiyotni islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari.....	110
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	



Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish jarayonlari.....	545
Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna	
“Авеста” – исторический источник экономической мысли в Древней Средней Азии.....	549
Хакимов Назар Хакимович, Садиқов Анвар Каримович	
Приоритетные направления развития теории формирования финансовой политики предприятия.....	555
Хамдамов С. Ф.	
Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish.....	562
Xasanova Nafisa Shavkatovna	
Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish.....	566
Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi	
Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar.....	572
Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari.....	578
Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni.....	583
Toyirova Amina Baxtisher qizi	
Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili.....	588
Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li	
Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar.....	592
K. Q. Tajibayev	
Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике.....	599
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	603
Mirzayeva Lola Shavkatovna	
Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni.....	607
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi.....	612
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....	620
Salixov Sherzod Abduxakimovich	
Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish.....	625
Xusanov Gulsum Baxtiyorovna	
Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish.....	628
Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi.....	635
Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li	
Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.....	640
Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov	
Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста.....	644
Насиров Дилшод Фархадович	
Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана.....	654
Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович	
Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir.....	659
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li	



ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGIGA O'TISH BOSQICHLARINING TASHKILY JIHATLARI VA IQTISODIY ASOSLARI



Amirqulov Shuxrat Olimovich

I.f.f.d., QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarining an'anaviy ishlab chiqarishdan organik ishlab chiqarishga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlari va unda amalga oshiriladigan tadbirlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bosqichlar, tayyorgarlik, o'tish, muvofiqlik, sertifikat, an'anaviy, organik, xalqaro talab, standart, ekologik, oziq-ovqat.

Abstract: The article scientifically substantiates the organizational aspects of the stages of the transition of agricultural enterprises from traditional production to organic production and the activities carried out in it.

Key words: stages, preparation, transition, compliance, certificate, traditional, organic, international requirements, standards, environmental, food products.

Аннотация: В статье научно обоснованы организационные аспекты этапов перехода сельскохозяйственных предприятий от традиционного производства к органическому производству и осуществляемая в нем деятельность.

Ключевые слова: этапы, подготовка, переход, соответствие, сертификат, традиционные, органические, международные требования, стандарты, экологические, пищевые продукты.

KIRISH

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning organik (tabiiy) va noorganik (kimyoviy unsurlarga asoslangan) yo'llari ajratib ko'rsatiladi. Ishlab chiqarishning noorganik yo'li ishlab chiqarishda turli kimyoviy preparatlarning qo'llanishi oqibatida atrof-muhitga salbiy ta'sir etmoqda, bu usulda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli esa insonlar sog'ligini izdan chiqarmoqda.

Bundan tashqari, jahon bozorida mahsulotlarga qo'yilgan sifat va xavfsizlik talablarining tobora kuchayib borishi, respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o'rnini mustahkamlash uchun qo'shimcha choralar ko'rishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish maqsadida insoniyat "yashil" iqtisodiyotga o'tmoqda. Qishloq xo'jaligida esa organik ishlab chiqarishni tashkil etish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Tabiiyki, qishloq xo'jaligida organik ishlab chiqarishga o'tishda ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmining kamayishini kompensatsiyalashni, ishlab chiqarishda texnika va texnologiyani takomillashtirishni, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning yangi shakllarini asoslashni, mahsulotlarni realizatsiya qilishda infratuzilmani modernizatsiyalashni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi organik qishloq xo'jaligiga boshqa xorijiy mamlakatlarga qaraganda ancha kech o'tmoqda. Biroq, aholining natural (organik) qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi tez suratda o'sib bormoqda. Shuning uchun mahalliy sharoitda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek tilining izohli lug'atida "organik" – organizmga, jonli mavjudotga oid, tirik mavjudotlar bilan bog'liq bo'lgan: tirik, jonli narsa" ekanligi qayd etilgan ^[1].

"Organik qishloq xo'jaligi" termini (organic farming) atamasi ilk bor 1939-yilda Angliyada Lord Nortborn (Lord Nortborn, Valter Ernest Kristofer Jeyms) tomonidan qo'llanilgan, 1940-yilda esa uning "Looktot he Land" ^[2] kitobi nashr etildi va unda xo'jalikni yagona organizm sifatida qarash etirof etilgan.



Rossiyalik iqtisodchi olimlar I.V.Kondratyev, A.V.Xodus, I.G.Ushachev va boshqalar “Organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy afzalliklari qishloq xo‘jaligidagi uzoq muddatli barqarorlik, tuproq tarkibini va suv infiltratsiyasini takomillashtirish, biologik xilma-xillikni oshirish, inson va hayvonot dunyosining salomatligi uchun xavfsizlik, shuningdek, eng yaxshi xushtam sifatli istemol mahsulotlari ishlab chiqarilishidir”^[3] deb etirof etishadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar M.X.Yusupov, N.A.Ashurmetova va G.T.Hamdamovalar “Organik qishloq xo‘jaligi bu — dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilikda xo‘jalik yuritish tizimi bo‘lib, bunda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy usullaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratiladi”,^[3] deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha, organik (ekologik, biologik) qishloq xo‘jaligi bu o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda sintetik o‘g‘itlardan, pestitsidlar va o‘simliklarni o‘stirish preparatlaridan, ozuqa qo‘shimchalaridan foydalanishda ongli ravishda uni minimallashtirishni taminlaydigan xo‘jalik yuritish usuli tushuniladi. Bunda ekinlar hosildorligini oshirishda organik o‘g‘itlar (go‘ng, kompost, somon qoldiqlari, yashil maysa va boshqalar)dan, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishda biofondni saqlab qolish maqsadida biopreparatlardan foydalaniladi, almashlab ekishni joriy qilish orqali tuproqning mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi. Chorvachilik mahsuldorligini taminlashda mollarni ko‘proq tabiiy dala-yaylovlarda boqish erkin sayr qildirish qoidalariga amal qilinadi, mollar kasalliklarini davolashning tabiiy usullaridan foydalaniladi.

Biz olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib “Organik qishloq xo‘jaligi bu — ishlab chiqarish — iste‘mol fazalarida texnologik jarayonlarni organik mahsulotlar to‘g‘risidagi qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirilgan, insonlarning hayotiga va sog‘ligiga hamda atrof-muhitga salbiy taʼsir etmaydigan, sertifikatlashtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridir”, deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik tadqiqot ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasining “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi Qonunining 4-bob 16-moddasida “Organik mahsulotlarni ishlab chiqarishga o‘tish shartlari” ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

- organik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va muvofiqliqni baholash organi o‘rtasida mahsulotlarni muvofiqliqini belgilash bo‘yicha shartnoma tuzish;
- organik mahsulot ishlab chiqarish jayonini “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi Qonun va texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqlashtirish;
- organik mahsulotlarni ushbu toifaga kirmaydigan mahsulotlardan alohida ishlab chiqarish;
- o‘tish davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni “o‘tish davridagi organik mahsulotlar” sifatida tamg‘alash va sotish belgilangan^[4].

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, organik dehqonchilik ittifoqi, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining an‘anaviydan organik o‘tishining uch bosqichini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi. Bu bosqichlarni tayyorgarlik, o‘tish va organik muvofiqlik bosqichi, deb etirof etish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonasida organik qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishiga o‘tishi va shakllanishining asosiy bosqichlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashgan holda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1-bosqich: xalqaro ekologik standartlarning zaruriy parametrlariga javob beruvchi istemol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari reyestrini shakllantirish;

2-bosqich: ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini yuritish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida qishloq xo‘jaligi yerlari va atrof- muhitning tabiiy holatini monitoring qilish va sifatini baholash;

3-bosqich: Qishloq xo‘jaligi korxonalari rahbar kadrlarini organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga o‘tish va ekologik toza mahsulotlarni realizatsiya qilish masalalari bo‘yicha o‘qitish (malakasini oshirish);




4-bosqich: ekologik qishloq xo'jaligi xalqaro standartlar talablari asosida muayyan turdagi mahsulotlarni ekologik markirovkalash huquqidan foydalanish bo'yicha korxonaning sifat menejmenti tizimini sertifikatlash;

5-bosqich: sotishni optimallashtirish va zarur maslahat va axborot yordamini olish uchun korxonaning organik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarning notijorat tashkilotiga kirishi;

6-bosqich: davlat yordamini olish va investorlarni jalb qilish maqsadida korxonani rivojlantirish bo'yicha biznes-reja tuzish;

7-bosqich: ichki va tashqi bozorlarda ishlab chiqarilgan ekologik toza mahsulotlarni sotish bo'yicha shart-nomalar tuzish.



1-rasm: Qishloq xo'jaligida an'anaviydan organik ishlab chiqarishga o'tish bosqichlari va unda amalga oshiriladigan vazifalar ketma-ketligi

Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligini ekologik yo'naltirilgan ishlab chiqarishga o'tish jarayonida yer uchastkalarining sifat ko'rsatkichlarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga ta'sirini hisobga olish zarur. Bunda maydon birligiga yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining ma'lum yer uchastkasining sifatiga, shuningdek, boshqa ko'rsatkichlarga bog'liqlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi korxonasini noorganik ishlab chiqarishdan organik ishlab chiqarishga o'tishini taminlaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligida organik ishlab chiqarish tizimini shakllantirish an'anaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan voz kechishni anglatmaydi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligida organik ishlab chiqarishni shakllantirish ma'lum bir davrni talab etadi. Ayniqsa dunyo davlatlarida oziq-ovqat taminotida muammolar mavjud bo'lgan hozirgi sharoitda organik qishlab chiqarishda revolyusion emas, balki evolyusion yo'l bilan o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun qishloq xo'jaligi xo'jalik yuritishning bir-biri bilan parallel ravishda an'anaviy va organik usuldan foydalanish orqali aholining yuqori sifatli va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan joriy va kutilayotgan ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondira oladigan zamonaviy agrotexnologiyaga aylanib borishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.04.2022-yildagi O'RQ-766-son.
2. Begmatov E. va boshqalar. O'zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018-y.
3. Susan S.Lang. Organic farming produces same corn and soybean yields as conventional farms, but consumes less energy and no pesticides, study finds Архивная копия от 24 сентября 2012 на Wayback Machine // Cornell News Service, 13 июля 2005.
3. Кочеткова С.А., Акимова Ю.А. Проблемы формирования и развития российского органического сельского хозяйства "Экономика и социум" №4(17) 2015 www.iupr.ru.
4. Саидов М.Х., Ашурметова Н.А., Хамдамова Г.Т. Теоретические основы органического сельского хозяйства в республике Узбекистан.